

NUTQIY RIVOJLANISHNING XILMA-XIL TIPOLOGIK BUZILISHLARI VA DIFFERENSIAL TASHXISLASH.

Kimyo international
university in Tashkent
Maxsus pedagogika yo'nalishi
Najmetdinova Mohinur Hamza qizi
3-kurs talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada nutqiy rivojlanishdagi xilma xil buzilishlar va differensial tashxislash nutqiy nuqsonlarni kelib chiqish sabablari haqida yoritib berilgan

Tayanch so'zlar: Nutq diagnoz, rivojlanish, nuqson, differensial tashxis, skrining, fenomenologik muloqot, ijtimoiy, psixik, diagnostika.

Kirish.

Hzirgi kunda qator ekologik ijtimoiy va boshqa sabablarga ko'ra, shuningdek homiladorlikdan keyingi patologik asoratlarni natijasida bola rivojlanishi va birinchi navbatda, uning ongi, atrof-muhit tahlili holda faoliyatini nazorat qilish va boshqarish funksiyalarining rivojlanish masalasini o'rganish muhimdir. Respublikamizda umum insoniy qadriyatlarning o'sishi, jamiyatimizning yuksalish sari rivojlana borishi yordamga muhtoj bolalar ta'limiga alohida e'tibor qaratishini taqozo etmoqda. Hozirgi kunda imkoniyati cheklangan bolalarni jismonan sog'lom, ma'naviy va axloqiy barkamol komil inson qilib voyaga yetkazish barchamizning burchimizdir. Keyingi yillarda respublikamizda bunday ishlarni amalga oshirish jarayonida nafaqat davlat muassasalari, balki nodavlat tashkilotlar, ayniqsa xalqaro tashkilotlar ham o'z yordamlarini berib kelmoqda.

Nutq kishilarning tug'ma qobiliyati bo'lmay, bolalar o'sib, rivojlangan sayin nutq ham asta-sekin shakllanib, mukammallashib boradi. Bolalar nutqining maromida bo'lishi uchun bosh miya po'stidagi nutq markazi to'liq rivojlangan bo'lishi, ularning

eshitish, ko‘rish, ta‘m bilish, hid bilish, teri sezgisi ham yetarli darajada rivojlangan bo‘lishi lozim. Chunki sezgi a‘zolari atrof-muhit bilan uzviy bog‘langan bo‘ladi. Agar bola yangi taassurotlar olib turmasa, harakatlari va nutqi uchun sharoit yaratib berilmasa, uning jismoniy va ruhiy rivojlanishi tormozlanadi. Sog‘lom bola ilk yosh davrida ehtiyojini guvranish, g‘udurlash kabi nutqning sodda ko‘rinishi, bir yoshlariga kelib esa dastlabki so‘zlar orqali qondiradi. Uning nutqi avvalo atrofidagi kattalarning nutqiga taqlid qilish asosida rivojlanadi. Bola dastlab o‘z hohish va fikrlarini aniq grammatik tizimdan mustasno bo‘lgan alohida so‘zlar yordamida ifoda etsa, 2 yoshlarga yaqin nutqi til tizimi hamda uning qonuniyatlariga asoslangan holda tarkib topa boshlaydi. U til tarkibiga oid hech qanday qonun-qoidalarni bilmasa-da, so‘zlarni hech bir xatosiz turlaydi, tuslaydi, so‘z birikmalarini tuza oladi, hatto-ki, so‘z birikmalari qonunlariga mos ravishda mutlaqo yangi so‘zlarni tuza oladi.

Bola tilning murakkab tizimini eshitish yordamida o‘zlashtiradi: talaffuz malakalari – ko‘pgina so‘zlarning tovush tarkibini, ulardan foydalanishni o‘zlashtiradi, so‘zlar va gaplarning grammatik jihatdan o‘zgarib borishi va hosil bo‘lishi bilan bog‘liq holda yuzaga kelayotgan ma’nolarning mazmunini tushuna boshlaydi. Nutq, dastlab ijtimoiy hodisa, muloqot vositasi sifatida yuzaga kelgan bo‘lsa, asta-sekin atrof olamni anglash, faoliyatni rejalashtirish vositasiga aylana boradi. Bola ulg‘aygan sari murakkab bo‘lgan til birliklarini egallaydi: lug‘atni, frazeologik birikmalarni o‘zlashtiradi, so‘z tuzilishi, so‘z o‘zgarishi va so‘z birikmasi, shuningdek, turli-tuman sintaktik birliklar qonuniyatlarini egallab boradi. Tilning ushbu vositalaridan u murakkablashib borayotgan bilimlarini o‘zgalarga yetkazish, faoliyati jarayonida atrofini o‘rab turgan insonlar bilan muloqotga kirishish uchun foydalanadi. Nutqni tushunish, bola hali so‘zlamasdan avval sodir bo‘lib, o‘z rivojlanishida turli bosqichlar – hajmiga ko‘ra o‘sib borish va sifat jihatdan o‘zgara boruvchi jarayonlarni bosib o‘tadi. 2 yoshga kirgan bolaning faol lug‘at zaxirasi 250-300 so‘zni tashkil etadi. Bu davrda bolaning ma’noli nutqi ham rivojlanib boradi. U fikrlarini bir necha so‘zlardan iborat bo‘lgan sodda gap orqali yetkazishga erishadi. 3 yoshga kirgan bola faol lug‘atining tarkibi 800-1000 ta so‘zni tashkil etsa, 4 yoshga kirganida – 1500-2000 ta,

5 yoshga yetganida esa 2500-3000 ta soʻzni tashkil etadi (Atmaxova L., Seytlin).

Avsusi, meyorida rivojlangan bolalar qatorida nutq nuqsoni bor bolalar xam uchraydi.

Diagnoz soʻzi yunoncha **diagnosis** soʻzidan olingan boʻlib “tartib, nomlash, tartiblash, bilish, aniqlash” degan maʼnolarni bildiradi. Differensial tashxislash esa maʼlum holatni multisensor buzilishlarga ega holatlarni oʻzaro farqlash, shu asosida nuqson patogenezi ichidan birlamchi nuqsonni va u asosida yuzaga kelgan ikkilamchi va uchlamchi nuqsonlarni farqlash, shu asosida nuqson strukturasi tuzilishini tashkil etish va bu asosida logopedik yordamni tashkil etishga qaratilgan amallarni oʻz ichiga oladi.

Rivojlanishdagi nuqsonlarni tashxis qilish uch bosqichni oʻz ichiga oladi.

Birinchi bosqich - skrining nomini olgan. Ushbu bosqichda bola rivojlanishidagi orqada qolish, psixik -jismoniy kamchiliklari aniqlanadi, lekin ularning xarakteri va chuqurligi belgilash murakkab boʻladi.

Ikkinchi bosqich – rivojlanishdagi nuqsonlarni differensial tashxis qilish. Ushbu bosqichning maqsadi rivojlanish nuqsonini turini (xil, toifasini) aniqlash. Uning natijalariga koʻra bolaning imkoniyat va xususiyatlarini hisobga olgan xolda, ularning taʼlim olishlari uchun taʼlim muassasasini turi va dasturi, optimal pedagogik yoʻllanmasi aniqlanadi. Psixologo-tibbiy-pedagogik komissiyaning faoliyati differensial diagnostikada yetakchi rolni egallaydi.

Uchinchi bosqich – fenomenologik. Uning maqsadi – bolaning individual xususiyatlari, yaʼni tafakkur faoliyatining xarakteristikasi, hissiy-iroda doirasi, ishchanlik qobiliyati, shaxsi oʻrganilib u bilan ishlash boʻyicha korreksion-rivojlantiruvchi individual shart-sharoitni tashkillashtirishdir. Rivojlanishda nuqsoni boʻlgan psixologo-pedagogik diagnostikani samarali amalga oshirish uchun “Rivojlanishdagi nuqson” tushunchasiga alohida eʼtibor qaratish zarur. Rivojlanishida

nuqsoni bo'lganlarni tashxis qilishning asosiy tamoyillaridan biri bu – kompleks yondashuv bo'lib unda bolani rivojlanish xususiyatlarini barcha kerakli mutaxassislar tomonidan (vrach, defektolog, psixolog) uning faqatgina bilim olish faoliyatinigina emas, balki xulki, hissiy irodasi, shuningdek ko'ruv, eshituv, harakat doirasi, nevrologik statusi, somatik holatini har tomonlama tekshirib baholashdir. Bolani tibbiy hamda psixologo- pedagogik tekshirishlar tizimlilik asosida olib boriladi.

Differensial tashxis rivojlanish nuqsonini aniqlaydi, va uning natijalari orqali bolaning imkoniyatlariga xos ta'lim shakllari aniqlanadi. Differensial tashxisning vazifalari quyidagilar:

- bola rivojlanishidagi aqliy, nutqiy va hissiy nuqsonlar xarakteri va darajasini aniqlash;

- birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarini aniqlash hamda buzilish tizimli taxlil qilish;

- harakat - tayanch apparati, ko'ruv, eshituv kamchiliklarida psixik rivojlanish nuqsonlarining xususiyatlariga baho berish;

- pedagogik tashxisni aniqlash va uni asoslash.

Ma'lumki, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning har bir turida psixologik xususiyatlarining o'xshash jihatlari ham kuzatiladi. Masalan, rivojlanishida nuqsoni bo'lganlarning deyarli barchasida nutq kamchiliklar yoki ta'lim olishida sustliklar xarakterlidir. Rivojlanish nuqsonini, darajasini aniqlovchi o'ziga xos xususiyatlar, differensial tashxisning asosi bo'lib hisoblanadi (V.I.Lubovskiy). Bu hozirgi kunda maxsus psixologiyada anomal rivojlanishlarni taqqoslash xarakteriga ega ilmiy izlanishlarning yetarlicha emasligi bilan bog'liq. Bunday ilmiy ishlarni olib borish differensial tashxis imkoniyatlarini yanada kengaytirar edi.

Differensial tashxislash hozirgi kunda juda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bularning barchasi statistik ma'lumotlarga qaraganda aynan polisensor buzilishlarga ega bo'lgan, murakkab yoki mujassam nuqsonlarga ega bo'lgan bolalar sonini ko'payishi shu bilan birgalikda nutq nuqsonlarini boshqa nuqsonlar bilan og'irlashib kelishi va nutq muammolarini boshqa nuqsonlar asosida yuzaga kelishi holatlarini ko'payishi bilan bog'liqdir. Ma'lumki nutq bu filogenezdagi eng kech rivojlanadigan funksiyalardan biri hisoblanib, nutq nuqsonlarida psixik rivojlanishning barcha buzilishlarida namoyon bo'ladi. Nutq nuqsoni mustaqil nuqson sifatida ham, shu bilan birgalikda boshqa nuqsonlar ya'ni birlamchi nuqsonlar asosida shakllanuvchi ikkilamchi nuqson sifatida ham yuzaga kelishi mumkin. Shu asosida differensial tashxislash aynan bo'lajak logopedlarga birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarni to'g'ri farqlash shu asosida logopedik korreksiyaning to'g'ri tashkil etishga qaratilgan hisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, differensial diagnostika ma'lum bir qiyinchiliklari mavjud. Bularni barchasini nuqsonni bartaraf etishdagi ma'lum bir parametrlar asosida ko'rishimiz mumkin. Tashxislashdagi ma'lum bir parametrlarni aniq ko'rsatilmaganligi bilan namoyon bo'ladi. Bizga ma'lumki ko'p xorijiy mamlakatlarda aynan standartlashtirilgan testlardan foydalaniladi. Differensial tashxislashni amalga oshirish jarayonida ko'p yillik tadqiqotlar asosida shu ma'lum bo'ldiki, aynan testlash asosida olingan ma'lumotlar bolani nuqsonini to'g'ri tahlil qilish, shu asosda bu nuqsonni aynan bir toifaga joylashtirish uchun kerakli ma'lumotlarni olish imkoni yetarli bo'lmaydi. Chunki testlash aynan faqatgina natijani ko'rsatadi. Biz esa bolani topshiriqni bajarish davomidagi sifat darajasini xulq-atvorini boshqa parametrlar bilan ham inobatga olishimiz kerakligi ko'rinadi. Shu asosda ko'pchilik olimlar differensial tashxislash o'zining parametrlarini taklif etishgan: misol uchun, Zabramnayaning taklifi bo'yicha bolalarni differensial tashxislashda aynan bolaning hissiy rivojlanish xususiyatlari inobatga olish ya'ni bolani tekshiruvchi logoped bilan qanday muomalaga kiradi va qanday qilib o'z muomalani tashkil etadi va xakozo. Ikkinchi parameter bu topshirini qabul qilish va topshiriqni bajarishga bo'lgan ishtiyoq hisoblanadi. Ya'ni bola qanday qilib topshiriq ko'rsatmasini

tushunadi, sinchikovlik, e'tibor bilanmi yoki tinglash paytida e'tiborsizlik qiladimi topshiriqga kirishish paytida qiyinchiliklarga duch kelganda o'zini qanday tutadi va bu asosida yordamni qabul qiladimi degan parametrlarni asosiy hisoblanadi va shu asosida topshiriqni bilish natijasi emas balki topshiriqni bajarish jarayonida bolani xulq-atvorini asosiy paramentlar sifatida qabul qilinadi. Bolalarga olimlar tomonida bunday tashxislash parametrlari turlicha tavsiflanadi. Misol uchun Lyubovskiy bergan qarashlari bizga juda ham yaqin hisoblanadi. Bolani aynan intellektual, nutqiy, hissiy irodaviy tomondan rivojlanishini asosiy parametr deb hisoblanadi. Bu asosda nutq ta'siri va bu nutq nuqsoniga ta'sirini ko'rsatib berishni asosiy parametr sifatida oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Vigotskiy L.S. Sobr. soch.: v 6 t. - M., 1982. T. 2.
2. Defektologicheskiy slovar / pod red. B. P. Puzanova. - M.: MPSI, 2007. - 808 s.
3. Kovalev V.V. Psixiatriya detskogo vozrasta (Rukovodstvo dlya vrachey). - M.: Meditsina, 1979.
4. Lebedinskiy V.V. Narusheniye psixicheskogo razvitiya v detskom vozraste. -M.: Akademiya, 2008.
5. Repina N.V., Voronsov D.V., Yumatova I.I. Основы клинической психологии. М.: Feniks, 2003. - 479 s.
6. Ayupova M.Y. Logopediya. Darslik. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2007.
7. Logopediya L.S. Volkova, S.I. Shaxovskaya. Izd-vo «Vlados» – M., 2002.
8. Golubeva G.G. Korreksiya narusheniy foneticheskoy storoni rechi u doshkolnikov. Izd-vo «Soyuz» – M., 2001.
9. Krauze YE.N. Logopediya. Izd-vo «Korone print» – M., 2003.
10. Mo'minov L., Ayupova M. Logopediya. – T., 1993.